ELEKTRON SAVDO PLATFORMALARIDA SOLIQ MAJBURIYATLARINI NAZORAT QILISH VA SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Homidov Baxtiyor Rahimberdievich
O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
baxtiyor.xamidov@soliq.uz
ORCID iD: 0009-0003-7866-9257
https://doi.org/10.5281/zenodo.22829036

Annotatsiya

Mazkur tezisda elektron savdo platformalari va marketpleyslar orqali amalga oshiriladigan operatsiyalarda soliq majburiyatlarini nazorat qilishning zamonaviy mexanizmlari hamda soliq ma'murchiligini takomillashtirish yo'nalishlari tadqiq etilgan. Elektron tijorat hajmining kengayishi natijasida sotuvchi, xaridor, platforma operatori va to'lov tashkiloti o'rtasidagi hisob-kitoblarning raqamli shaklga o'tishi soliq organlari uchun yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda qo'shimcha nazorat vazifalarini ham yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqotda elektron savdo platformalarini soliq organlari axborot tizimlari bilan integratsiya qilish, elektron chek va elektron hisobvaraq-faktura ma'lumotlarini o'zaro solishtirish, platformalarda amalga oshirilgan real savdo aylanmasini soliq hisobotlari bilan taqqoslash hamda riskli operatsiyalarni avtomatik aniqlash imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, OECDning raqamli platformalarni QQS/GSTni undirish jarayoniga jalb etish bo'yicha xalqaro tajribasi o'rganilib, O'zbekiston sharoitida marketpleyslar orqali soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: elektron tijorat, elektron savdo platformasi, marketpleys, soliq majburiyati, soliq nazorati, soliq ma'murchiligi, QQS, elektron chek, elektron hisobvaraq-faktura, raqamli platforma, soliq riski.

Abstract

This paper examines modern mechanisms for monitoring tax obligations in transactions conducted via e-commerce platforms and marketplaces, as well as avenues for improving tax administration. The expansion of e-commerce and the shift toward digital settlements among sellers, buyers, platform operators, and payment organizations present tax authorities with both new opportunities and additional oversight responsibilities.

The study analyzes the integration of e-commerce platforms with tax authority information systems, the cross-referencing of electronic receipt and electronic invoice data, the comparison of actual sales turnover on platforms against tax filings, and capabilities for the automated detection of high-risk transactions. Furthermore, the study reviews international experience—specifically that of the OECD—regarding the involvement of digital platforms in VAT/GST collection processes and formulates scientific and practical proposals to further enhance tax administration for marketplace transactions in Uzbekistan.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Keywords: e-commerce, e-commerce platform, marketplace, tax obligation, tax control, tax administration, VAT, electronic receipt, electronic invoice, digital platform, tax risk.

Kirish

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi savdo munosabatlarining an'anaviy shakllarini tubdan o'zgartirib, tovar va xizmatlarni internet orqali realizatsiya qilish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Bugungi kunda elektron marketpleyslar, internet-do'konlar, mobil ilovalar va elektron to'lov platformalari sotuvchi hamda iste'molchilar o'rtasidagi asosiy vositachilardan biriga aylanmoqda. Mazkur jarayon elektron tijorat subyektlarining soliq majburiyatlarini to'g'ri hisobga olish, savdo aylanmalarining to'liq deklaratsiya qilinishini ta'minlash va soliqdan bo'yin tovlash xavflarini kamaytirishni soliq ma'murchiligining dolzarb vazifasiga aylantirmoqda.

Elektron savdoning an'anaviy savdodan muhim farqlaridan biri shundaki, savdo operatsiyasining deyarli barcha bosqichlari raqamli ma'lumot shaklida qayd etiladi. Xaridorning buyurtmasi, to'lov summasi, sotuvchi to'g'risidagi ma'lumot, komissiya haqi, elektron chek, tovarni yetkazib berish va qaytarish operatsiyasi platformaning axborot tizimida saqlanadi. Shu sababli elektron savdo platformalari soliq ma'murchiligini raqamlashtirish uchun muhim axborot manbai sifatida namoyon bo'lmoqda.

OECD elektron platformalarning onlayn savdoda QQS/GSTni samarali undirishdagi roliga alohida e'tibor qaratadi. Tashkilot ma'lumotlariga ko'ra, transchegaraviy elektron tijoratdagi tovar savdosining qariyb uchdan ikki qismi onlayn marketpleyslar orqali amalga oshiriladi. Shu bois ayrim mamlakatlarda elektron platformalar ular orqali amalga oshirilgan savdolar bo'yicha QQSni hisoblash, xaridordan undirish va davlat budjetiga o'tkazish majburiyatiga jalb qilinmoqda.

Mazkur yondashuvning muhim afzalligi shundaki, soliq organi elektron platformada savdo qilayotgan minglab alohida tadbirkorlarning har bir operatsiyasini mustaqil nazorat qilish o'rniga, katta hajmdagi savdo ma'lumotlarini jamlaydigan platforma bilan to'g'ridan-to'g'ri axborot almashishi mumkin. OECD elektron platformalar va soliq organlari o'rtasida ma'lumot almashinuvi, shuningdek, soliq va bojxona organlarining o'zaro hamkorligi onlayn savdoda soliq intizomini oshirishning muhim vositalaridan ekanini ta'kidlaydi.

O'zbekistonda ham elektron savdo platformalarini soliq ma'murchiligi tizimiga integratsiya qilish bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirilgan. Soliq qo'mitasining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil 1-iyul holatiga 216 ta marketpleys ro'yxatga olingan. Ularning 49 tasi elektron to'lov tizimi, 36 tasi bank mobil ilovasi va 131 tasi internet-do'konlardan iborat bo'lgan. Mazkur platformalarning ma'lumotlar bazalari soliq organlarining axborot tizimlari bilan bosqichma-bosqich integratsiya qilingan.

Elektron fiskallashtirishning kengayishi natijasida soliq organlarida katta hajmdagi ma'lumotlar shakllanmoqda. 2025-yil 1-iyul holatiga xaridorlarga yil boshidan umumiy qiymati 62,8 trln so'mlik 1,4 trln dan ortiq elektron chek taqdim etilgan. Ushbu ko'rsatkich elektron savdo va chakana savdo operatsiyalarini avtomatlashtirilgan nazorat qilish uchun keng axborot bazasi mavjudligini ko'rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Elektron savdo platformalarining jadal rivojlanishi soliq ma'murchiligi oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. An'anaviy savdoda soliq organlari asosan soliq deklaratsiyalari, buxgalteriya hujjatlari va nazorat-kassa ma'lumotlariga tayangan bo'lsa, elektron tijorat sharoitida marketpleyslar, elektron to'lov tizimlari, bank mobil ilovalari, elektron cheklar va elektron hisobvaraq-fakturalar kabi ko'plab raqamli ma'lumot manbalari shakllanmoqda. Mazkur ma'lumotlarni o'zaro integratsiya qilish elektron savdo

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

subyektlarining real savdo aylanmasini aniqlash va soliq majburiyatlarini aniqroq nazorat qilish imkonini beradi.

O‘zbekistonda elektron tijorat hajmining so‘nggi yillardagi dinamikasi ushbu masalaning iqtisodiy ahamiyatini yaqqol ko‘rsatadi. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, elektron tijorat savdo hajmi 2021-yilda 5 978,7 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda 10 886,8 mlrd so‘mga, 2023-yilda 13 263,8 mlrd so‘mga, 2024-yilda 15 211,5 mlrd so‘mga va 2025-yilda 31 551,9 mlrd so‘mga yetgan.

1-jadval.

O‘zbekistonda elektron tijorat savdo hajmining dinamikasi, 2021–2025-yillar

Yillar	Elektron tijorat savdo hajmi, mlrd so‘m	Oldingi yilga nisbatan o‘sish, %
2021	5 978,7	–
2022	10 886,8	82,1
2023	13 263,8	21,8
2024	15 211,5	14,7
2025	31 551,9	107,4

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2021–2025-yillarda elektron tijorat savdo hajmi qariyb 5,3 baravarga oshgan. Ayniqsa, 2025-yilda keskin o‘sish kuzatilib, elektron tijorat hajmi bir yil ichida ikki baravardan ko‘proqqa oshgan. Bu holat elektron savdo operatsiyalarini soliqqa tortish va ularning to‘liq hisobga olinishini ta’minlash masalasini soliq ma’murchiligining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirmoqda.

Elektron tijorat hajmining oshishi bilan bir qatorda, marketpleyslarning soliq organlari axborot tizimlariga integratsiyasi ham kengaymoqda. Soliq qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil 1-iyul holatiga 216 ta marketpleys ro‘yxatga olingan. Ularning 49 tasi elektron to‘lov tizimlari, 36 tasi bank mobil ilovalari va 131 tasi internet-do‘konlardan iborat bo‘lgan. Elektron to‘lov tizimlarining 36 tasi, bank mobil ilovalarining 33 tasi va internet-do‘konlarning 96 tasi soliq organlari axborot tizimi bilan to‘liq integratsiya qilingan.

Ushbu ma’lumotlar O‘zbekistonda marketpleyslarning soliq ma’murchiligidagi roli asta-sekin kuchayib borayotganini ko‘rsatadi. Elektron platformaning soliq tizimiga integratsiya qilinishi natijasida platformada shakllanayotgan savdo operatsiyalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar avtomatik tarzda soliq organlariga yetkazilishi mumkin. Bu esa tadbirkorning soliq hisobotida ko‘rsatilgan tushum bilan platformadagi real savdo aylanmasini solishtirish imkoniyatini beradi.

Soliq qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil 1-iyul holatiga xaridorlarga yil boshidan umumiy qiymati 62,8 trln so‘mlik 1,4 trln donadan ziyod elektron chek taqdim etilgan. Bundan tashqari, 353,6 mln dona elektron chek bo‘yicha xaridorlarga 164,9 mlrd so‘m keshbek hisoblangan. Ushbu raqamlar fiskal ma’lumotlarning juda katta hajmda shakllanayotganini ko‘rsatadi.

Elektron cheklar soliq nazoratida ikki tomonlama ahamiyatga ega. Birinchidan, xaridor tomonidan amalga oshirilgan har bir savdo operatsiyasi fiskal tizimda qayd etiladi. Ikkinchidan, elektron chek ma’lumotlarini marketpleysdagi buyurtma va to‘lov ma’lumotlari bilan solishtirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Masalan, platformada ma’lum davrda 500 mln so‘mlik savdo amalga oshirilgan bo‘lsa, elektron fiskal cheklar yoki soliq deklaratsiyasida bundan ancha kam tushum aks ettirilishi avtomatik ravishda soliq xavfi belgisi sifatida baholanishi mumkin.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Elektron savdo platformalarida vositachilik operatsiyalarining ko'pligi soliq bazasini to'g'ri aniqlash masalasini yanada murakkablashtiradi. Marketpleys ko'pincha o'zi tovar sotuvchi subyekt emas, balki sotuvchi va xaridor o'rtasidagi vositachi hisoblanadi. Shu sababli platforma komissiyasi, sotuvchining haqiqiy tushumi va xaridordan olingan umumiy summa alohida hisobga olinishi kerak. Bunda elektron chek, sotuvchi identifikatsiyasi, platforma komissiyasi va real tushum to'g'risidagi ma'lumotlarning o'zaro mosligi soliq bazasini to'g'ri shakllantirish uchun muhimdir.

O'zbekistonda elektron tijorat operatorlari faoliyatini tartibga solish bo'yicha huquqiy mexanizmlar ham kuchaytirildi. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-dekabrdagi 885-son qaroriga muvofiq, 2025-yil 1-iyuldan elektron tijorat operatorlari faoliyati xabardor qilish tartibi asosida amalga oshirilishi belgilandi. Ushbu tartib O'zbekiston hududida elektron tijorat operatori sifatida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlariga tatbiq etiladi. Bu esa elektron savdo platformalarini identifikatsiya qilish va ularning faoliyati ustidan institutsional nazoratni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xalqaro amaliyotda esa elektron platformalar faqat ma'lumot taqdim etuvchi vositachi sifatida emas, balki ayrim holatlarda soliq majburiyatini bajaruvchi subyekt sifatida ham jalb etilmoqda. OECD tomonidan tavsiya etilgan full VAT/GST liability regime doirasida elektron platforma u orqali amalga oshirilayotgan onlayn savdolar bo'yicha QQS yoki GSTni hisoblash, undirish va soliq organiga o'tkazish uchun to'liq javobgar bo'lishi mumkin. Bunday yondashuv millionlab alohida sotuvchilarni nazorat qilish o'rniga katta savdo oqimlarini birlashtiruvchi nisbatan kam sonli platformalar orqali soliq ma'murchiligini tashkil qilish imkonini beradi.

OECD ushbu modelning asosiy afzalligi sifatida soliq organlari uchun ma'muriy xarajat va nazorat risklarini kamaytirishini qayd etadi. Platforma xaridor va sotuvchi haqidagi zarur ma'lumotlarga ega bo'lsa hamda to'lov jarayonida ishtirok etsa, uning soliqni hisoblash va undirishdagi roli samaraliroq bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, OECD soliq majburiyati yuzaga kelish vaqtini to'lov tasdiqlangan vaqt bilan bog'lash elektron platformalar uchun soliq ma'murchiligini soddalashtirishini ta'kidlaydi.

Mazkur xalqaro tajribadan kelib chiqib, O'zbekistonda ham yirik elektron savdo platformalarining soliq ma'murchiligidagi rolini bosqichma-bosqich kengaytirish mumkin. Birinchi navbatda, platformalarga o'zida ro'yxatdan o'tgan sotuvchilarning STIRi yoki boshqa identifikatsiya ma'lumotlarini tekshirish, har bir savdo operatsiyasini sotuvchiga aniq bog'lash va real tushum ma'lumotlarini avtomatik tarzda soliq organlariga yuborish majburiyati yuklanishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, "marketpleys — elektron chek — EHF — bank tranzaksiyasi — soliq hisoboti" ma'lumotlarini yagona axborot muhitida birlashtirish zarur. Amaldagi tizimda mazkur ma'lumotlar turli axborot bazalarida shakllanadi. Ularni yagona identifikator yordamida o'zaro bog'lash orqali bir operatsiyaning barcha bosqichlarini kuzatish imkoniyati yaratiladi. Masalan, xaridorning marketpleysdagi buyurtmasi, bank orqali amalga oshirilgan to'lovi, elektron chek va sotuvchining soliq deklaratsiyasidagi tushumi bir-biri bilan avtomatik solishtirilishi mumkin.

Uchinchidan, elektron savdo subyektlarining risk reytingini shakllantirish maqsadga muvofiq. Bunda platformadagi aylanma va deklaratsiyadagi tushum o'rtasidagi tafovut, elektron cheklar sonining keskin kamayishi, ko'p miqdorda cheklarni bekor qilish, qaytarilgan tovarlar ulushining g'ayrioddiy yuqoriligi, EHF va fiskal ma'lumotlarning mos kelmasligi kabi indikatorlardan foydalanish mumkin. Yuqori xavf ko'rsatkichiga ega tadbirkorlik subyektlari chuqurroq nazoratga jalb qilinadi, past xavfli subyektlarga esa ortiqcha ma'muriy yuk tushirilmaydi.

To'rtinchidan, elektron platformalarda amalga oshirilayotgan savdolarda soliqni manbada avtomatik hisoblash yoki ushlab qolish mexanizmlaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanish istiqbolli yo'nalish

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

hisoblanadi. Bu barcha soliqlarni platformaga yuklash degani emas. Biroq platforma to‘lov jarayonini to‘liq nazorat qiladigan ayrim operatsiyalarda soliq majburiyatini avtomatik hisoblash yoki soliq organiga zarur ma’lumotni real vaqt rejimida uzatish soliq intizomini kuchaytirishi mumkin. OECDning platforma javobgarligi modeli aynan shu yondashuvning xalqaro amaliyotdagi namunalaridan biridir.

XULOSA

Tadqiqot natijalari elektron savdo platformalarining kengayishi soliq ma’murchiligini yanada raqamlashtirish va avtomatlashtirish zaruratini kuchaytirayotganini ko‘rsatdi. Marketpleyslar, elektron chek, EHF, bank va to‘lov tizimlari ma’lumotlarini o‘zaro integratsiya qilish real savdo aylanmasini aniqlash va soliq majburiyatlarini samarali nazorat qilish imkonini beradi.

O‘zbekiston sharoitida elektron savdo platformalarini soliq organlari axborot tizimlariga to‘liq integratsiya qilish, platformadagi aylanma bilan soliq hisobotlarini avtomatik solishtirish hamda riskga asoslangan nazorat tizimini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, yirik marketpleyslarning sotuvchilarni identifikatsiya qilish va operatsiyalar bo‘yicha ma’lumotlarni avtomatik uzatishdagi mas’uliyatini kuchaytirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi (2022) Elektron tijorat to‘g‘risida. O‘RQ-792-son Qonun, 29 sentabr 2022-yil. Toshkent: Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi – LexUZ.
2. O‘zbekiston Respublikasi (2019) O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. O‘RQ-599-son Qonun bilan yangi tahrirda qabul qilingan, 30 dekabr 2019-yil. Toshkent: Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi – LexUZ.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2026) O‘zbekiston Respublikasida elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida. PQ-136-son Qaror, 13 aprel 2026-yil. Toshkent: Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi – LexUZ.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (2022) Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to‘lovchilarning soliq majburiyatlarini aniqlashda davlat organlari va tashkilotlarining ma’lumotlar bazasidan foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida. 471-son Qaror, 22 avgust 2022-yil. Toshkent: Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi – LexUZ.
5. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi (2025) Iste’molchilarga joriy yil boshidan 1,4 trlndan ziyod elektron chek berildi. 25 iyul 2025-yil. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi.
6. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi (2024) Marketpleyslar va elektron to‘lov tizimlari bilan ishlaydigan vositachi (komissioner) hisobotlarni qanday shakllantiradi? 21 may 2024-yil. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi.
7. OECD (2019) The Role of Digital Platforms in the Collection of VAT/GST on Online Sales. Paris: OECD Publishing. doi:10.1787/e0e2dd2d-en.
8. OECD (2017) International VAT/GST Guidelines. Paris: OECD Publishing. doi:10.1787/9789264271401-en.
9. European Commission (2026) EU VAT Rules for E-commerce, Five Years On: More than €125 Billion in VAT Revenue. Brussels: Directorate-General for Taxation and Customs Union, 3 September 2026.
10. European Commission (2025) Report on the Application of the VAT E-commerce Package for 2024. Brussels: Directorate-General for Taxation and Customs Union.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

11. European Commission (2025) VAT in the Digital Age (ViDA): Modernising the EU VAT System. Brussels: Directorate-General for Taxation and Customs Union.
12. World Customs Organization (2022) Framework of Standards on Cross-Border E-Commerce. Brussels: World Customs Organization.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.